ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

YOZDONQULOVA OZODA ZOKIRJON QIZI
Jadid lirikasida tarixiy antroponimlar asosida shakllangan
antonomaziyalarning lingvopoetik va konseptual xususiyatlari 116

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 120

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 127

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 131

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 136

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 139

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 143

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 146

G'AYRATBEK OYBEK O'G'LI XOLBUTAYEV
Folklorshunoslikda latifa janrini tasniflashning nazariy asoslari 149

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 154

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FOLKLORSHUNOSLIKDA LATIFA JANRINI TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI

G'ayratbek Oybek o'g'li Xolbutayev
O'zbek va rus tili filologiyasi dotsenti
Qo'qon universiteti Andijon filiali, Andijon, O'zbekiston
Filologiya fandari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
gayratbek19912705@gmail.com
+998 94 108 6008

Zamonaviy jahon folklorshunosligida latifa (anekdot) janri insoniyat tafakkurining universal, shu bilan birga, madaniy-lokal xususiyatlarini o'zida mujassam etgan eng hayotiy janrlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Jahon tajribasida mazkur janr tadqiqiga bo'lgan yondashuvlar turlicha: g'arb ilmiy maktablarida latifa ko'proq lingvomadaniy va pragmatik aspektda, ya'ni muloqotdagi kulgi strategiyasi sifatida o'rganilsa, sharq va turkiy xalqlar folklorshunosligida uning epik tabiati, qahramon va syujet qurilishi masalalari ustuvorlik qiladi. Maishiy, ijtimoiy va paradoksal vaziyatlar zaminida qurilgan bu janr, bugungi kunda kognitiv folklorshunoslik va madaniy antropologiya chorrahasida tahlil qilinmoqda.

O'zbek xalq nasri tizimida latifa janri o'zining qadimiy ildizlari va o'ziga xos poetikasi bilan markaziy o'rinni egallaydi. Milliy folklorshunosligimizda K.Imomov, O.Safarov va M.Jo'rayev kabi olimlarning tadqiqotlari natijasida latifaning mustaqil janriy tabiatiga doir nazariy qarashlar shakllandi. O'zbek latifashunosligida asosiy e'tibor janrning funksional-semantik ko'lami, xususan, "hikmatli yumor" (Afandi obrazlari misolida), didaktik xulosa va an'anaviy qahramonlar tizimiga qaratilgan. M.Jo'rayev tomonidan taklif etilgan janrlar tasnifi mezonlari – bayon usuli, epik vaqt va makon, tinglovchi munosabati kabi jihatlar latifani faqat kulgi manbai emas, balki murakkab badiiy tizim sifatida baholashga xizmat qiladi.

Rus folklorshunosligida latifa, ya'ni anekdot janrini ilmiy jihatdan o'rganish va uni tasniflash masalasi turli nazariy-metodologik yondashuvlar asosida shakllangan. Bu yo'nalishda Yu.M.Sokolov hamda V.Ya.Proppning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Garchi mazkur olimlarning yondashuvlari bir-biridan farq qilsa-da, ular latifa janrining mazmuniy, ijtimoiy va strukturaviy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Avvalo, Yu.M.Sokolov folklorni xalq turmushi, ijtimoiy hayoti va dunyoqarashining bevosita ifodasi sifatida talqin etadi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, latifa jamiyatdagi voqelikni kulgi, hajv va satira orqali badiiy aks ettiradigan janr hisoblanadi. Shu sababli olim latifalarni asosan ularning mavzu doirasi, mazmuniy yo'nalishi va ijtimoiy vazifasiga ko'ra tasniflashni maqsadga muvofiq deb biladi. Masalan, maishiy latifalarda kundalik hayotda uchraydigan oddiy voqealar kulgi asosida tasvirlansa, ijtimoiy-satirik latifalarda amaldorlar, byurokratik munosabatlar, ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik tanqid qilinadi. Tarixiy latifalar esa muayyan tarixiy davr, voqea yoki shaxs haqidagi xalq munosabatini ifodalaydi. Demak, Yu.M.Sokolov uchun latifani tahlil qilishda asosiy mezon uning "nima haqida" ekanligini aniqlashdan iboratdir. U kulgini ijtimoiy ziddiyatlarni ochib berishga xizmat qiluvchi badiiy vosita sifatida baholaydi.

V.Ya.Propp esa folklor hodisalariga strukturalistik nuqtai nazardan yondashadi. Uning "Sehrli ertaklar morfologiyasi" asarida ishlab chiqilgan tahlil usuli dastlab ertak janriga nisbatan qo'llangan bo'lsada, keyingi tadqiqotlarda latifa janrini o'rganishda ham samarali metodologik asos sifatida foydalanilgan. Proppning fikricha, har qanday folklor matni muayyan ichki qurilish, funksiyalar tizimi va voqealar ketma-ketligiga ega. Shu jihatdan latifa ham kirish qismi, ziddiyatli vaziyat va kutilmagan yechim – puantdan iborat qisqa mikrosyujet sifatida qaraladi. Bunda asosiy e'tibor matnning mazmunidan ko'ra uning qanday tuzilgani, voqealar qanday rivojlanishi va ular qanday funksiya bajarishiga qaratiladi. Demak, Propp uchun latifaning asosiy xususiyati uning "qanday qurilgani" bilan belgilanadi.

Yu.M.Sokolov va V.Ya.Propp qarashlarini qiyosiy tahlil qilganda, ular o'rtasidagi asosiy farq metodologik yondashuvda ekanligi namoyon bo'ladi. Yu.M.Sokolov latifani ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda o'rganib, uni mazmun va mavzu asosida tasniflaydi. V.Ya.Propp esa latifaning ichki kompozitsion tuzilishi, syujet modeli va universal strukturalarini aniqlashga

e'tibor qaratadi. Masalan, amaldor haqidagi muayyan latifani Sokolov ijtimoiy-satirik turga mansub deb baholasa, Propp uni "kutilmagan yakunga asoslangan komik struktura" sifatida tahlil qiladi[1].

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur ikki yondashuv bir-biriga zid emas, aksincha, ular o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega. Yu.M.Sokolov latifaning mazmuniy va ijtimoiy mohiyatini ochib bersa, V.Ya.Propp uning ichki qurilishi, kompozitsion mexanizmi va komik ta'sir hosil qilish qonuniyatlarini izohlaydi. Zamonaviy folklorshunoslikda latifa janrini har tomonlama tadqiq etish uchun aynan shu ikki yondashuvni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yu.M.Sokolov latifani xalq hayoti va jamiyat munosabatlarini aks ettiruvchi badiiy ko'zgu sifatida talqin qilsa, V.Ya.Propp uni muayyan ichki qonuniyatlarga ega bo'lgan badiiy-strukturaviy tizim sifatida izohlaydi. Bu ikki nazariy qarash latifa janrining ham mazmuniy, ham shakliy jihatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

V.Ya.Proppning "Komizm va kulgi muammolari" (Проблемы комизма и смеха) asari ham latifa janrini o'rganishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda olim kulgini faqat estetik zavq yoki oddiy ruhiy holat sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy, psixologik va badiiy qonuniyatlarga bo'ysunuvchi murakkab hodisa sifatida tahlil qiladi.

Propp nazariyasining muhim jihati shundaki, u kulgining paydo bo'lishini inson tafakkuri, kutilmalar tizimi va voqelikni qabul qilish jarayoni bilan bog'laydi. Olimning qarashiga ko'ra, kulgi ko'pincha kutilgan holat bilan haqiqiy natija o'rtasidagi ziddiyat yoki nomuvofiqlik asosida yuzaga keladi. Ya'ni tinglovchi yoki o'quvchi voqeaning ma'lum bir mantiqiy yo'nalishda rivojlanishini kutadi, biroq voqea kutilmagan tarzda yakunlanadi. Ana shu ziddiyat komik ta'sirni vujudga keltiradi. Bu holat latifa janri uchun ayniqsa muhimdir, chunki latifaning asosiy badiiy ta'siri aynan puant – kutilmagan yakun orqali namoyon bo'ladi.

V.Ya.Propp kulgining bir qator asosiy prinsiplarini ajratib ko'rsatadi. Ularning birinchisi nomutanosiblik prinsipidir. Bu holatda voqelikdagi unsurlar o'rtasidagi mantiqiy, axloqiy yoki ijtimoiy muvofiqlik buziladi. Masalan, jiddiy vaziyatda mutlaqo ahamiyatsiz yoki absurd javob berilishi kulgili effekt hosil qiladi. Ikkinchi prinsip me'yorning buzilishi bilan bog'liq. Jamiyat tomonidan qabul qilingan odob-axloq qoidalari, ijtimoiy me'yorlar yoki mantiqiy tartib buzilganda komizm yuzaga keladi. Uchinchi prinsip paradoks va teskarilikka asoslanadi. Bunda fikr, vaziyat yoki harakat o'zining qarama-qarshi ma'nosiga aylanadi. To'rtinchi muhim prinsip esa karikatura va giperbolizatsiya bilan bog'liq bo'lib, unda muayyan belgi yoki xususiyat ataylab kuchaytirib ko'rsatiladi va shu orqali kulgi paydo qilinadi.

Propp kulgining ijtimoiy vazifasiga ham alohida e'tibor qaratadi. Uningcha, kulgi faqat ko'ngilochar vosita emas, balki tanqid qilish, fosh etish va baholash quroli hamdir. Kulgi vositasida jamiyatdagi kamchiliklar, inson xarakterining salbiy jihatlari, axmoqlik, manmanlik, ayyorlik yoki adolatsizlik ochib beriladi. Latifalarda bu xususiyat ayniqsa ravshan ko'rinadi, chunki ularda komik vaziyat orqali muayyan ijtimoiy yoki axloqiy muammo badiiy ifoda topadi.

Bizningcha, latifa janrida V.Ya.Propp tomonidan ko'rsatilgan komik prinsiplar yaqqol namoyon bo'ladi. Latifa qisqa hajmli, ixcham syujetli va kuchli ta'sirga ega bo'lgan janr sifatida odatda uch bosqich asosida quriladi: vaziyat yaratiladi, tinglovchida muayyan kutilma shakllantiriladi va bu kutilma kutilmagan tarzda buziladi. Masalan, savol-javob shaklidagi latifada tinglovchi mantiqan to'g'ri javobni kutadi, ammo berilgan javob g'ayrioddiy, paradoksal yoki bema'ni bo'lib chiqadi. Bu esa nomutanosiblik va me'yor buzilishi orqali kulgi hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Latifa xalq og'zaki ijodining eng harakatchan, ommaviy va funksional jihatdan serqirra janrlaridan biri sanaladi. U qisqa syujet, kutilmagan yechim va komik ta'sir orqali ijtimoiy hayotni aks ettiradi. Turli xalqlar folklorida latifalar muayyan umumiy strukturaga ega bo'lsa-da, ularning mazmuni, vazifasi, obrazlar tizimi va badiiy ifoda usullari milliy-madaniy xususiyatlarga ko'ra farqlanadi. Rus va o'zbek latifalarini qiyosiy o'rganishda V.Ya.Propp, Yu.M.Sokolov va B.N.Putilov nazariyalari muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Latifa bir epizodga asoslangan, qisqa hajmli, komik ta'sir uyg'otuvchi og'zaki epik janr bo'lib, uning markazida kutilmagan burilish – puant turadi. V.Ya. Propp ta'kidlaganidek, kulgi kutilgan holat bilan voqeiy natija o'rtasidagi ziddiyat tufayli yuzaga keladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, rus va o'zbek latifalarida asosiy struktura umumiy xarakterga ega. Ular, odatda, quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: **vaziyat → kutilma → puant**. Biroq ushbu universal kompozitsion sxema har bir xalq folklorida turli mazmun, obrazlar tizimi va milliy tafakkur xususiyatlari bilan to'ldiriladi.

Rus latifalarida ko'proq ijtimoiy tanqid, satira va absurd komizm ustuvorlik qiladi. Yu.M.Sokolov bunday latifalarni "xalqning ijtimoiy voqelikka munosabatini ifodalovchi"[2] sifatida baholaydi. Rus folklorida

[1] Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – С. 60 – 68; Соколов Ю.М. Русский фольклор. – М.: Учпедгиз, 1941. – С. 210 - 215.

[2] Соколов Ю.М. Русский фольклор. – М.: Учпедгиз, 1941. – С. 213.

latifalar mavzu va vazifasiga ko'ra bir necha turga ajratiladi.

Birinchidan, ijtimoiy-satirik latifalarda davlat tuzumi, amaldorlar, byurokratik munosabatlar va jamiyatdagi adolatsizliklar kulgi orqali tanqid qilinadi. Bu turdagi latifalarda komik ta'sir ko'pincha norma bilan real hayot o'rtasidagi ziddiyat asosida yuzaga keladi.

Ikkinchidan, absurd latifalarda voqealarning mantiqiy izchilligi buziladi. Ularda paradoks, nomutanosiblik va g'ayrioddiy xulosa yetakchi o'rin tutadi. Bu holat V.Ya. Propp ta'riflagan komik struktura prinsiplariga mos keladi.

Uchinchidan, kasbiy latifalarda soldat, professor, shifokor, o'qituvchi kabi obrazlar orqali muayyan ijtimoiy qatlam yoki kasb egalariga xos xususiyatlar kulgi asosida ochib beriladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida: **"Latifa** – (a) 1. kulgili voqea hodisalar haqida kichik hikoya sifatida izohlanadi. Afandi latifalari afsonaviy xalq qahramoni Xo'ja Nasriddin afandining sarguzashtlari bilan bog'lab, xalq tomonidan yaratilgan qisqa-qisqa kulgili hikoyalar"[1],-deb talqin etiladi. O'zbek folklorshunosligida ham latifa mustaqil janr sifatida keng o'rganilgan. K.Imomov latifani "o'zbek xalq nasrining hajv, yengil yumor, hazil-mutoyiba, so'z o'yini, masxara va nayrangga asoslangan mustaqil janri"[2] sifatida tavsiflaydi. O.Safarov esa "latifaning asosiy janriy belgilarini kompozitsiya soddaligi, syujet ixchamligi, yechimning favqulodda yuz berishi, kulgining tasodifiy ko'rinishi va yagona markaziy qahramon obrazi bilan bog'liqligida" ko'radi[3].

M.Mardonovning fikricha, latifa o'zbek xalq nasrida kichik hajmli, ixcham syujetli, kulgi uyg'otishga asoslangan og'zaki epik janr hisoblanadi. U odatda bir kishi tomonidan ijro etiladi va unda epik qahramonning sarguzashti kulgili voqea bilan yakunlanadi. Ko'p hollarda latifalarda voqelik bosh qahramon va unga qarama-qarshi turgan personajlar o'rtasidagi dialog asosida quriladi. Bosh qahramon esa zukkoligi, hozirjavobligi, ayyorligi yoki topqirligi bilan ajralib turadi. O'zbek xalq latifalarida Afandi, kal, Aldar Ko'sa kabi an'anaviy obrazlar, zamonaviy latifalarda esa jinni, Shirini kabi yangi obrazlar ham uchraydi[4].

O'zbek latifalarida yumor ko'pincha hikmat, tarbiya va hayotiy tajriba bilan uyg'unlashadi. B.N.Putilov ta'kidlaganidek, folklor janrlarini ularning madaniy muhitidan ajratib o'rganish mumkin emas[5]. Shu nuqtai nazardan o'zbek xalq latifalarini mavzu va funksiyasiga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchidan, Afandi latifalari o'zbek latifalarining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Bu turdagi latifalarda yumor mulohaza, ironiya va hikmat bilan birlashgan holda namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, maishiy latifalarda kundalik turmush, oilaviy munosabatlar, bozor, qo'shnichilik, insonlar o'rtasidagi oddiy muloqot vaziyatlari kulgi asosida tasvirlanadi.

Uchinchidan, axloqiy-didaktik latifalarda kulgi orqali tinglovchiga muayyan tarbiyaviy xulosa yetkaziladi. Bunday latifalarda kibr, manmanlik, qo'pollik, odamlarni mensimaslik, nohaqlik kabi salbiy xususiyatlar kulgi vositasida tanqid qilinadi.

O'zbek va rus latifalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikki xalq latifalarida syujetning soddaligi, voqeaning ixchamligi va kutilmagan yakun bilan tugallanishi umumiy poetik belgi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ularning mazmuniy yo'nalishi va funksional vazifasida farq mavjud. O'zbek latifalarida "hikmatli yumor", obrazli ifoda va Afandi kabi an'anaviy qahramonlar muhim o'rin tutsa, rus latifalarida satira, byurokratiya tanqidi, ijtimoiy muammolar va absurd komizm kuchliroq namoyon bo'ladi.

Shu asosda o'zbek latifalarining asosiy modeli "yumor + axloqiy xulosa + obrazli fikrlash" tarzida ifodalanishi mumkin. Rus latifalarida esa "ironiya + ijtimoiy tanqid + mantiqiy buzilish" modeli yetakchilik qiladi. Demak, o'zbek va rus latifalari umumiy komik strukturaga ega bo'lsa-da, ularning madaniy vazifasi va badiiy yo'nalishi har xildir. O'zbek latifalarida hikmatli-kommunikativ model ustun bo'lsa, rus latifalarida satirik-ijtimoiy model kuchliroq namoyon bo'ladi.

Rus folklorshunosligida latifalarni ichki guruhlarga ajratishda bir nechta yirik nazariy yo'nalish shakllangan. Ulardan birinchisi Yu.M.Sokolov nomi bilan bog'liq sotsiologik yondashuvdir. Bu yondashuvda latifa ijtimoiy mazmun, xalq fikri va satira asosida tasniflanadi. Ikkinchisi V.Ya.Propp tomonidan rivojlantirilgan strukturalistik yondashuv bo'lib, unda latifaning komik qurilishi, nomutanosiblik, me'yor buzilishi va puant kabi elementlari tahlil qilinadi. Uchinchisi B.N.Putilov maktabiga xos funksional-tipologik yondashuvdir. Bu yo'nalishda latifa madaniy kommunikatsiya, ijtimoiy vazifa va janrlararo aloqalar tizimida o'rganiladi.

Keyingi folklorshunoslik tadqiqotlarida ushbu yondashuvlar turli shakllarda davom ettirilgan. Masalan, O.A.Chirkova zamonaviy xalq latifalarini o'rganar

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик 1- том. – Москва: "Русский язык", 1981.– 428. (632 б).

[2] Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.199.

[3] Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижоди. Дарслик. – Бухоро, 2006. – Б. 221.

[4] Mardonov M.S. O'zbek va amerika hazillarining madaniy o'ziga xosliklari//"O`zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari" ilmiy-nazariy metodik jurnal. – Urganch, 2024. № 5, – B.128-136.

[5] Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура. – СПб.: Наука, 1994. – С. 132 - 140.

ekan, hayotiy latifa, mifologik latifa va tarixiy latifa kabi ichki guruhlarni ajratib ko'rsatadi[1]. L.Diasamidze tadqiqotida esa anekdot janrining tarixiy tipi va uning turli tillardagi tipologik xususiyatlari tahlil qilinadi[2]. A.A.Sitnova talabalar folklori doirasida talabalar latifalarini alohida guruh sifatida o'rganadi[3]. Uning tadqiqotida ham latifalarni mavzu asosida tasniflash prinsipi yetakchi o'rin tutadi.

Ye.N.Abdrazakova rus, bolgar va ingliz latifalarining kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganar ekan, ularni tarixiy va zamonaviy latifalarga ajratadi[4]. A.S.Astapovaning tadqiqotida esa rus latifalari siyosiy, etnik va dolzarb latifalar sifatida guruhlashtiriladi[5]. Bu holat mazkur tadqiqotlarda latifalarni asosan mavzuiy doirasiga ko'ra tasniflash tamoyili ustuvor ekanini ko'rsatadi.

O'zbek xalq nasri janrlarini tasniflashda M.Jo'rayevning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim jahon va turkiy xalqlar folklorshunosligida to'plangan nazariy tajribaga tayanib, o'zbek xalq nasri janrlarini badiiy-estetik jihatdan tasniflashda bir necha mezonga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Ular qatoriga janrning funksional-semantik qamrovi, aytuvchi va tinglovchining bayon etilayotgan voqeaga munosabati, janrning badiiy darajasi, obrazlar tizimi, voqelikka munosabati, epik vaqt va makon qamrovi hamda voqelikni bayon qilish usuli kiradi.

Mazkur mezonlar latifa janrini tasniflashda ham samarali qo'llanishi mumkin. Bizningcha, o'zbek xalq latifalarini ilmiy asosda guruhlashtirishda professor M.Jo'rayev konsepsiyasiga tayanish maqsadga muvofiqdir[6]. Chunki bu yondashuv latifalarni faqat mavzu yoki qahramon asosida emas, balki ularning funksiyasi, badiiy qurilishi, ijro xususiyati va madaniy konteksti bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va rus latifalarini qiyosiy tasniflashda ularning strukturasi, mavzu doirasi, ijro sharoiti, uslubiy xususiyati va funksional vazifasini hisobga olish zarur. Shu asosda ularni quyidagi mezonlar bo'yicha o'rganish mumkin: tematik mezon – ijtimoiy, maishiy, siyosiy latifalar; strukturaviy mezon – puant, dialog, absurdga asoslangan latifalar; funksional mezon – tanqidiy, ko'ngilochar va tarbiyaviy latifalar; madaniy kontekst mezoni – sharqona va g'arbona an'analar ifodasiga ko'ra shakllangan latifalar.

Tipologik jihatdan o'zbek va rus latifalari umumiy komik strukturaga ega. Biroq ularning mazmuni, vazifasi va milliy-madaniy ifodalanishida sezilarli farqlar mavjud. Rus folklorida latifa ko'proq ijtimoiy tanqid va satirik baholash vositasi sifatida shakllangan bo'lsa, o'zbek folklorida u ko'proq hayotiy hikmat, tarbiyaviy mazmun va yumor uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shu bois har ikki xalq latifalarini tasniflashda ularning madaniy muhiti, milliy dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini inobatga olish lozim.

Shuningdek, latifalarni o'rganishda ularning funksiyasi muhim o'rin tutadi. Ayrim latifalar tarbiyaviy vazifa bajarsa, boshqalari asosan ko'ngilochar xarakterga ega bo'ladi. Yana bir guruh latifalar tanqidiy funksiyani bajarib, jamiyatdagi muammolarni kulgi orqali ochib beradi. Demak, latifa nafaqat estetik zavq beruvchi janr, balki ijtimoiy munosabat, axloqiy baholash va madaniy xotirani ifodalovchi muhim folklor shakli hamdir.

O'zbek va rus latifalarini tasniflashda mavzu, qahramon, komik ta'sir xususiyati, til-uslubiy vositalar va funksional vazifa asosiy mezonlar sifatida qaralishi lozim. Latifalar har bir xalqning madaniy dunyoqarashi, hayot tarzi, ijtimoiy tajribasi va milliy tafakkurini o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Shu ma'noda ularni faqat kulgi manbai sifatida emas, balki muhim ijtimoiy-madaniy hujjat va xalq tafakkurining badiiy ifodasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Rezyume. Yu.M.Sokolovning sotsiologik va V.Ya.Proppning strukturalistik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, janrning mazmuniy va shakliy xususiyatlari ochib berilgan. Rus va o'zbek latifalarining universal kompozitsion modelini (vaziyat → kutilma → puant) hamda ulardagi milliy-madaniy farqlarni asoslab beralgan. Shuningdek, latifa janrini tematik, strukturaviy va funksional mezonlar asosida tasniflash masalalari hamda an'anaviy obrazlarning janr taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan.

[1] Чиркова О.А. Поэтика современного народного анекдота. Автореф.дисс. канд.филол.наук. – Москва, 1997. 24 с.

[2] Диасамидзе Л. Текст типологическая интерпретация жанра «анекдот» (на материале английского, его американского варианта и грузинского языков). Автореф. дисс. докт. филол.наук. – Батуми, 2013. 56 с.

[3] Ситнова А.А. Вербальное творчество студенческого сообщества: характер и типы связей с традиционной и массовой культурой. Автореф.дисс. канд.филол. наук. – Ульяновск, 2009. 24 с.

[4] Абдразакова Е. Н. Сопоставительный когнитивный и лингвокультурологический анализ русских, болгарских и английских анекдотов: автореферат дисс. канд. филол. наук – Тюмень, 2007. - 24 с.

[5] Астапова А.С. Современный студенческий анекдот: сюжетный состав и тематические особенности. Автореф. дисс. канд. филол. наук.– Санкт-Петербург – 2016. 24 с.

[6] Жўраев М. Ўзбек халқ насри жанрларини тасниф қилиш мезонлари//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. 5-сон. – Б.28-34.

Resume. The sociological approaches of Yu.M.Sokolov and the structuralist approaches of V.Ya.Propp are comparatively analyzed, revealing the substantive and formal features of the genre. The universal compositional model of Russian and Uzbek anecdotes (situation → expectation → point) and their national and cultural differences are substantiated. The issues of classifying the anecdotal genre based on thematic, structural and functional criteria, as well as the role of traditional images in the development of the genre are also highlighted.

Резюме. Проводится сравнительный анализ социологических подходов Ю.М. Соколова и структуралистских подходов В.Я. Проппа, выявляющий содержательные и формальные особенности жанра. Обосновывается универсальная композиционная модель русских и узбекских анекдотов (ситуация → ожидание → точка) и их национальные и культурные различия. Также освещаются вопросы классификации юморестического жанра по тематическим, структурным и функциональным критериям, а также роль традиционных образов в развитии жанра.